

SOME PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Nasritdinova Madina Nurullayevna,

Teacher of the department

"Music education and culture" of FSU

FarDu Department of Music Education

Turgunboyeva Muhlis

2nd year student

nasretdinova0806@gmail.com

Annotation: This article describes the achievements and problems of pedagogical activity of specialists in certain disciplines in the education system of Uzbekistan.

Keywords: Pedagogy, education, upbringing, personality, activity, knowledge, maturity, problem.

OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI AYRIM MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

Farg'ona davlat universiteti

"Musiq ta'limi va madaniyat"

kafedrasi o'qituvchisi

Nasritdinova Madina Nurullayevna

FDU, "Musiqiy ta'lim" kafedrasi

2-bosqich talabasi

Turg'unboyeva Muhlis

nasretdinova0806@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida muayyan fanlarga ixtisoslashgan yo'nalishlardagi mutaxassislar pedagogik faoliyatning yutuqlari va muammolari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, ta'lim, tarbiya, shaxs, faoliyat, bilimli, yetuk, muammo.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urfodatlar, turli-tuman an'analarni joyga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida jadal o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilish sifatini ta'minlash, hozirda pedagogika sohasining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim oldida turgan vazifalarni hal etish bevosita pedagog faoliyatiga bog'liqdir [1].

Pedagogika — grekcha “paydagogos” so'zidan kelib chiqqan bo'lib (paida-bola, gogos—yetaklovchi) - “bola yetaklovchi” degan ma'noni bildiradi. Pedagogika - (yun. paidagogike) tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasidir. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri oila va jamiyatda tarbiyali, madaniyatli yetuk hamda barkamol shaxsni shakllantirish hisoblanadi [2].

Qadimdan insoniyat, ta'lim-tarbiyaga katta ahamiyat qaratgan va pedagogning asosiy vazifasi bolalarda ta'lim hamda estetik tarbiya, odob-axloq tarbiyasi bilan shug'llunish bo'lgan.

Hozirgi kunda pedagoglarning asosiy vazifasi va faoliyati ta'lim va tarbiyani uyg'un xolatda talabalar ongiga singdirishdan iboratdir.

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlarini salohiyatli kadr, madaniyatli, tarbiyali hamda yetuk barkamol shaxs qilib shakllantirish maqsadida Prezidentimiz qaroriga binoan Oliy ta'lim vazirligi tomonidan 2016–yil Oliy ta'lim dargohlariga qabul kvotalari sezilarli darajada oshirildi [3].

Qaror ijrosi jarayonida ko'p yoshlar talabalik baxtiga musharraf bo'ldilar. Ammo ushbu qaror ijrosini ta'minlash jarayonida amaliyotda bir qator muammolar kelib chiqdi. Oliy ta'lim dargohlarida muayyan

fanlarga ixtisoslashgan yo'nalishlarda mutaxassis pedagog kadrlar yetishmovchiligi, o'quv qo'llanmalarining yetarli emasligi, pedagog faoliyatini samaradorligini ta'minlashda ularga shart-sharoitlar yaratilishida muhtojlik sezilmoqda. Yangi tashkil etilgan yo'nalishlar muayyan fanlarga ixtisoslashgan yo'nalishlarda pedagoglar uchun milliy adabiyotlarni yo'qligi, bo'lsada ulardan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi Oliy ta'lim dargohlarida vujudga kelayotgan muammolardan biridir.

Ushbu muammolarni bartaf etish bilan birgalikda pedagoglar faoliyatini takomillashtirish, ta'lim tizimining bugungi kun talabi darajasida tashkil etish zarurdir. Yetuk kadrlarni tarbiyalash hamda shakllantirishda Oliy ta'lim dargohlarida faoliyat olib borayotgan pedagog-kadrlar zimmasiga bir qator talablarni belgilaydi:

- mutaxassis malakali, keng dunyoqarashli, bilimli, o'z bilimlarini to'laqonli talabalarga yetkazib berishi, innovatsion texnologiyalaridan foydalanishi bugungi kun bilan hamnafas bo'la olishi;
- o'qituvchida pedagogik qobiliyat shakllangan bo'lishi;
- ustoz-shogird an'anasi orqali professor pedagoglar va yosh amaliyotchi o'qituvchilarni faoliyatini hamkorlikdatashkil etishga zamin yaratish kabi talablarni taqazo etadi.

Achinarli bo'lsada amaliyotda ilmiy salohiyati past, talabga javob bermaydigan ayrim pedagoglarni ham uchratamiz. Ko'p hollarda bilimli, oliy ma'lumotli pedagog, ammo o'z bilimlarini talabaga to'laqonli yetkazib bera olmayotganlari ham yo'q emas. Muammolarni bertaraf etish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi.

Oliy ta'limda bir qancha muammolar bo'lsada hozirgi kunda ta'lim tizimi joriy tizimdan kredit-modul tizimiga o'tishi munosabati bilan, ta'lim samaradorligini oshirishi kutilmoqda. Kredit-modul tizimida nafaqat talabalarga balki pedagoglarga ham yengillik berilishi kutilmoqda. Bu orqali pedagog va talaba o'rtasidagi munosabat yaxshilanadi hamda shaffof tizim yaratiladi. Pedagog o'z faoliyatini erkin ravishda olib boradi, o'z ustida ishlashi, malaka oshirishi hamda o'zaro tajriba almashish imkoniyati yaratiladi. Yangi kredit-modul tizimi Oliy ta'lim tizimimizda to'laqonli qo'llanilmaganligi, yangilik bo'lgani sababli, amaliyotda bir qator muammo va tushunmovchiliklar kelib chiqmoqda.

Albatta barcha muammolarni yechimi bo'lganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Oliy va O'rta ta'lim Vazirligi tomonidan qabul qilinayotgan qaror va buyruqlarni ijrosi ta'minlanib, amaliyotda o'z ifodasini topadi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O.Suyunov, D.Norboyeva, A.Shonazarov, O'.Zubaydullayev "Pedagogika" Samarqand. SamISI. 2015.
2. N.S.Atayeva, F.RasuIova, M. Salayeva, S.Hasanov.Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). I kitob.
3. Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012, 756 bet.
<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Pedagogika>
4. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/32>
5. <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/258>
6. <http://darakchi.uz/uz/13857>